



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

HOZIRGI XITOIY TILIDA FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

Dilshod Badalbayev

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: dilxiade@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turg'un birikma, frazeologizm, xiyongyu (习用语), guanyongyu (惯用语), chengyu (成语).

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali xitoy tilining o'ziga xos jihatlardan biri hisoblanmish xiyongyu (习用语) va ularning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Maqola orqali frazeologizmlar va xiyongyu (习用语)lar o'rtasidagi farqlarga to'xtalib o'tilib, tahlilga tortiladi. Xitoy olimlarining bu jihatlarga bo'lgan qarama-qarshi fikrlari bilan yaqindan tanishiladi. Yuqoridagi xususiyatlardan tashqari, xiyongyu (习用语)larni qanday aniqlash, ularga o'xshab ketadigan frazeologizmlar, xususan guanyongyu (惯用语)lardan ajratib olish usullariga e'tibor qaratiladi. "Og'zaki xiguanyongyu (习用语)" haqida alohida to'xtalib o'tilib, bu tushunchani birinchilardan bo'lib, Chang Yuzhong 1989-yilda tilga olib kelinganligi e'tirof etiladi. Bu tur ko'pincha og'zaki mulqotda namoyon bo'lishiga ahamiyat berilib, ular nisbatan turg'un holatda kelishi, yaxlit holda to'liq ma'no yoki ma'lum munosabatni ifodalanishi keltirib o'tiladi. Ular aniq shakl, aniq kontekst va aniq semantika kabi xususiyatlariga ega bo'lishligi haqida ma'lumotga ega bo'linadi. Turg'un birikmalarning xususiyatlari chengyu (成语), yanyu (谚语), suyu (俗语), guanyongyu (惯用语)lardan farqi xususida fikrlar olib boriladi. Bu turdagi birliklar odatda grammatika, semantika va ritorika nuqtayi nazaridan turg'un deb qaralishi aniqlanadi. Turg'un birikmalarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari haqida fikrlar keltiriladi hamda tarkibidagi iyerogliflarning har birining o'ziga xos ma'nosi mavjud bo'lsa-da, lekin turg'un birikma holatida kelganda, boshqa

ma'nomlarni anglatadigan xiyongyu (习用语)lar borasida misollari bilan alohida keltiriladi.

PHRASEOLOGISMS AND THEIR SPECIFIC ASPECTS IN THE MODERN CHINESE LANGUAGE

Dilshod Badalbayev

basic doctoral

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: fixed compound, phraseology, xiyongyu (习用语), guanyongyu (惯用语), chengyu (成语).

Abstract: This article will examine one of the unique aspects of the Chinese language - phraseological units and stable combinations. The article discusses and analyzes the differences between phraseological units and xiyongyu (习用语). The opposing views of Chinese scientists on these aspects will be carefully reviewed. In addition to the above characteristics, attention is paid to how to identify xiyongyu (习用语), phraseological units similar to them, in particular, to distinguish them from guanyongyu (惯用语). Chang Yuzhong is credited with being one of the first to introduce this concept in 1989. It is emphasized that this type more often manifests itself in oral communication, that they come to a relatively stable state and express a complete meaning or a certain attitude in general. They are known to have properties such as clear form, clear context and clear semantics. Based on the characteristics of stable compounds, they are distinguished into chengyu (成语), yanyu (谚语), suyu (俗语), and guanyonyu (惯用语). It has been established that units of this type as a whole are considered stable from the point of view of grammar, semantics and rhetoric. Thoughts on the unique features of stable compounds are given, and although each of the hieroglyphs in the composition has its own meaning, when it comes to stable compounds, xiyongyu (习用语), which means other meanings of xiyongyu(习用语), are given separately with examples.

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ И ИХ ОСОБЕННОСТИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Дилшод Бадалбаев

базовой докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
устойчивых выражений,
фразеология, сийоньюй
(习用语), гуаньюньюй
(惯用语), чхеньюй (成语)

Аннотация: В этой статье будет рассмотрен один из уникальных аспектов китайского языка — фразеологизмы и устойчивые сочетания. В статье рассматриваются и анализируются различия между фразеологизмами и сийоньюй(习用语). Будут внимательно ознакомлены противоположные взгляды китайских ученых по этим аспектам. Помимо вышеперечисленных характеристик, уделяется внимание тому, как идентифицировать сийоньюй (习用语), сходные с ними фразеологизмы, в частности, отличать их от гуаньюньюй(惯用语). Признано, что Чанг Юйчжун был одним из первых, кто представил эту концепцию в 1989 году. Подчеркивается, что этот тип чаще проявляется в устном общении, что они приходят в относительно устойчивое состояние и выражают законченный смысл или определенное отношение в целом. Известно, что они обладают такими свойствами, как четкая форма, ясный контекст и четкая семантика. По характеристикам стабильных соединений различают чэньюй (成语), яньюй (谚语), суюй (俗语), гуаньюньюй (惯用语). Установлено, что единицы этого типа в целом, считаются устойчивыми с точки зрения грамматики, семантики и риторики. Приводятся мысли об уникальных особенностях устойчивых соединений, и хотя каждый из иероглифов в составе имеет свое значение, но, когда речь идет о устойчивом соединении, сийоньюй(习用语), что означает другие значения ёньюй, приводятся отдельно с примерами.

KIRISH

Bugungi kunga qadar, xitoy tili, xususan, uning leksikasi, semantikasi va boshqa bir qancha xususiyatlariga oid bir qancha tadqiqot ishlari olib borilib, sezirarli darajada yutuqlarga erishib kelinmoqda. Yaqin bir necha oʻn yillardan buyon bu tadqiqotlar koʻlami kengaymoqda. Ayniqsa, Xitoyda va chet ellardagi xitoyshunoslar orasida boshqa birliklardan ajralib turuvchi frezeologizmlarga eʼtibor yanada kuchayib bormoqda. Olimlar oldida frazeologizm tarkibi va ularning erkin birikmalardan farqi borasida olib borilgan ishlar biroz sust ekanligining guvohiga aylanishimiz mumkin. Hozirgi xitoy tili boy boʻlib, buning ichida frezeologizmlar ham katta oʻrinni egallaydi. Ular xitoy madaniyati, tilning qadr-qimmatini oshirish uchun xizmat qilib keladi. 巴不得呢«sabsizlanmoq, toqatsizlanmoq», 借光 «afu eting; oʻtkazib yuboring», 还别说 «nimasi aytasan; gapirma».

Chang Yuzhong o'zining "Og'zaki nutqdagi xiyongyu (习用语)larning tahlili" kitobida xiyongyu (习用语)larning tadqiqini olib boradi hamda birinchilardan bo'lib, "og'zaki xiyongyu (习用语)lar" atamasini ishlatgan. Shu bilan birga u xiyongyu (习用语)larni frazeologizmining bir qismi deb nomlashni ilgari suradi.

MUHOKAMA

Xitoy tilida "Frazeologizm" tushunchasi aniq bir ko'rinishga ega bo'lmay, quyida nomi zikr qilinadigan olimlar frazeologizmlarni xiyu (习语)larga tenglashtiradilar. Jou Zumo "Leksikologiya", Yan Venpey "Zamonaviy xitoy-ingliz jargonlar qiyosiy tadqiqi", Chen Hayyang "Xitoy tilshunoslik lug'ati", Su Changyi "Chet elliklar uchun og'zaki nutqning shakllanishi" asarlarida yuqoridagi fikrga ko'z tushadi.

Yana bir qancha olimlar esa frazeologizmi xiyu (习语)larga tenglashtirishmaydi. Jumladan, Trumbo va Stivensonning "Oxford English Dictionary (Short Edition)", Tomas Hill Longning "Longman Dictionary of English and Chinese Idioms" va hokazolar xiyu (习语)larning qamrov frazeologizmdan doirasi kengroq deb hisoblaydilar. Van Rongpei va Li Dongning "Amaliy inglizcha lug'at", Van Dechunning "Xitoy-ingliz maqollari va madaniyati" va boshqalarda xiyu (习语)larning doirasi frazeologizmlarga qaraganda kichikroq degan xulosalarni ilgari surishadi.

Yuqoridagi qarama-qarshi fikrlarga asoslangan holda, olimlar o'rtasida ham frazeologizmlar va xiyu (习语)lar haqida bir to'xtamga kelish mushkul hisoblanadi. Bu esa og'zaki turg'un birikmalarining ichki va tashqi xususiyatlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu kunga qadar olib borilgan tadqiqot natijalarini saralash orqali biz og'zaki xiyongyu (习用语), xiyu (习语), frazeologizm, guanyongyu (惯用语) kabi tushunchalar o'rtasidagi munosabatni aniqlashtirishimiz va og'zaki xiyongyu (习用语)larning ta'rifi, semantikasi va holatini tushunishimiz kerak bo'ladi.

1. Og'zaki nutqdagi xiyongyu (习用语)lar tushunchasi va tadqiqi.

Og'zaki xiyongyu (习用语)larning konsepsiyasi va joylashuvi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar "og'zaki xiyongyu (习用语)lar" atamasining chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu tadqiqotlar asosan ikki jihati-xususiyat tavsifi va o'rin tahlili borasida olib borilgan.

A. Xususiyat tavsifi.

Og'zaki xiyongyu (习用语)larni uch jihat: semantika, grammatika va ritorika bo'yicha chuqur tahlil qilgandan so'ng, Chang Yuzhong "Og'zaki xiyongyu (习用语)larning funksional lug'ati"ni tuzib, og'zaki xiyongyu (习用语)lar "aniq shaklga ega bo'lishini alohida ta'kidlab o'tadi. Lekin chengyu (成语), yanyu (谚语), xiyu (习语) lardandan farq qiladi" deb keltirib o'tadi.

Shao Jingmin ogʻzaki xiyongyu (习用语)larning xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirgan: Ogʻzaki nutqda turli vazifa va qoʻllanish xususiyatiga ega boʻlgan gaplarning turi sanalib, umumiy maʼno bu– tarkibiy qismlardan olingan yuzaki va grammatik mantiqiy maʼno emas, balki koʻchma maʼnodan kelib chiqadi.

Zhang Fenggening fikriga koʻra, ogʻzaki xiyongyu (习用语)lar yettita oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan qolipni oʻz ichiga oladi: kontekstga kuchli bogʻliqlik; notekis boʻgʻinlar; bir nechta metaforik soʻzlardan iborat; sintaktik tuzilmaning yoʻqligi; oʻziga xos semantika; munosabat va qimmatni ifodalovchi; asosan kundalik hayotda norasmiy vaziyatlarda qoʻllanuvchi.

Zhang Venning ogʻzaki xiyongyu (习用语)larning xususiyatlarini muhokama qilishda “strukturaviy birikmada ratsionallik va mantiq yetishmasligi” va “foydalanishda bir nechta funktsiyalarga ega boʻlishi mumkin” degan ikki fikr orqali ogʻzaki xiyongyu (习用语)larning guanyongyu (惯用语)lardan farqini koʻrsatib berishga harakat qiladi.

B. Oʻrin tahlili.

“Zamonaviy xitoy tilining sakkiz yuz soʻzi (yangilangan nashri)”da taʼkidlanganidek, baʼzi oʻrinlarda “xiyongyu (习用语)” bandlari mavjud boʻlib, ular asosan frazeologizmlar va turgʻun birikmalarni tushuntirayotganda foydalanilgan. (Masalan: 想当然 «aynan shunday», 彼此彼此 «oʻzaro»). Zhang Fengge fikricha, ogʻzaki xiyongyu (习用语)larning tuzilishi yaxlit koʻrinishda boʻlib, semantikasi uning tarkibiy qismlari maʼnolarining oddiy yigʻindisi emas, balki asosan konvensiyalardir.

Ogʻzaki xiyongyu (习用语)larning xususiyatlariga asta-sekinlik bilan oydinlik kiritib boryapmiz. Ammo biz Zhang Venning “ogʻzaki xiyongyu (习用语)lar frazeologizm toifasiga kiradi” degan fikrini hali ham bahslashishga arziydi, deb hisoblaymiz.

Avvalo, Zhang Ven turgʻun til tizimidagi ogʻzaki xiyongyu(习用语)larning holati haqida gapirganda, tanlangan misollar turgʻun birikma koʻrinishida keladi. Masalan, 说得好听 «quloqqa yoqimli», 都什么时候了«allamahal». Bundan tashqari, yarim tugʻun birikmalar usulidagi ogʻzaki xiyongyu (习用语)lardan qochilganligini koʻrishimiz mumkin. Jumladan, 当着A的面«...oldida turmoq». Ular frazeologizmlarning strukturaviy xususiyatlariga mos kelmasligi aniqdir. Ikkinchidan esa, barcha turdagi frazeologizmlar umumiy tuzilish belgilariga ega boʻladi. Masalan, chengyu (成语)lar asosan toʻrt belgili, guanyongyu (惯用语)lar koʻproq uch belgili, yanyu (谚语)lar asosan ikki belgili, xiehouyu (歇后语)lar esa “topishmoq” koʻrinishida boʻladi. Garchi maʼno yaxlit boʻlsa-da, ogʻzaki xiyongyu (习用语)lar tarkibida “frazeologizm” turkumidagi umumiyliklarni topish hali ham qiyin masalaligicha qolib kelmoqda. Shu sababli, biz xiyongyu (习用语)larning notoʻliq frazeologizmlar, frazeologizm jarayonida yoki frazeologizm xususiyati umuman yoʻq deb qarasa boʻladi.

Frazeologizmlar kishilar orasida yuzaga keladigan turli munosabatlarni qisqa, lo'nda va ta'sirchan qilib ifodalaydi. Tilda frazeologizmlarning qanchalik ko'p bo'lishi o'sha til imkoniyatlarining kengligidan dalolatdir. Tildagi turg'un birliklarni muayyan lahzada so'zlovchi tarafidan mohirona aytiluvchi fikr, deyish mumkin.

Frazeologizmlar o'z semantikasi va tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lib, grammatik, semantik, funksional-uslubiy xususiyatga ega .

2. Xiyongyu (习用语) va unga o'xshash bo'lgan tushunchalar bilan farqi.

Og'zaki nutqdagi xiyongyu (习用语) tushunchasi va ularning agpda kelish o'rmi hali bir qolipga solinganligi yo'q, uning shu xususiyati boshqa til birliklaridan farq qiladi. Og'zaki nutqdagi xiyongyu (习用语)larga ta'rif berish uchun biz ularning xiyu (习语), chengyu (成语), guanyongyu (惯用语) kabi tushunchalar bilan o'xshash va farqli jihatini o'rganib olishimiz zarur bo'ladi.

A. Xiyongyu (习用语) hamda xiyu (习语)

Xiyu (习语)lar maxsus ma'noga ega so'zlarning turg'un birikmasidir. Uning tarkibiy qismlarining ma'nolaridan umumiy ma'noni chiqarib bo'lmaydi. Nunberg o'z paytida xiyu (习语)larning zaruriy xususiyati shartlilik ekanligini ta'kidlagan . Tang Jieyuan xiyu (习语)lar va noxiyu (准习语)lar o'rtasidagi farqlovchi xususiyatlarni semantik yaxlitlik, noaniqlik, almashtirib bo'lmaydiganlik, semantik o'zboshimchalik va metaforalik kabi umumlashtirgan deb keltiradi . Zhang Veiyou shuningdek, xiyu (习语)larning chengyu (成语), yanyu (谚语), guanyongyu (惯用语), suyu (俗语) va boshqalar bilan aloqasi bo'lish yoki bo'lmasligi muhim emas deb hisoblaydi .

“Tilshunoslikdagi ot so'z turkumi” kitobida frazeologizm atamasiga to'xtalib o'tiladi. Idiomatik tuzilishga va tildagi umumiy ma'noga ega bo'lgan turg'un ibora yoki jumla hisoblanib, uning tarkibiga chengyu (成语), guanyongyu (惯用语), xiehouyu (歇后语), yanyu (谚语), suyu (俗语) va hokazolar kiradi. Sui Silian frazeologizm haqida qayta ishlangan va takomillashtirilgan til shakllarini bildirib, ular turg'un holatda bo'ladi, har bir frazeologizm aniq ma'noni ifodalab, ular tarkibidagi iyerogliflarni shunchaki almashtirib bo'lmaydi, degan fikrlarni bildiradi . Ko'rinib turibdiki, semantik yaxlitlik va bir qolipga solinganlilik frazeologizmlarning ikkita asosiy xususiyati ekan.

Xiyu (习语)lar va frazeologizmlarning ma'nosi to'liq bir-biriga mos kelmaydi. Xiyu (习语)larning tarkibida ahamiyat qaratadigan bo'lsak, u nafaqat chengyu (成语), guanyongyu (惯用语)larni, balki konstruksiyaviy jihatdan kelgan iboralarni ham o'z ichiga oladi. Xiyu (习语)lar tarkibiga frazeologizmlarni ham oladi deya olamiz.

Dong Xiufang xitoy tilidagi so'z va iboralarni chegaralashning muammosini tahlil qilishda qolipli kategoriyalar nazariyasidan foydalangan . Xuddi shunday, og'zaki xiyongyu (习用语)lar frazeologizmga yaqin ma'noda bo'lib, u bilan frazeologizm o'rtasida qat'iy chegara yo'q deb

biladi. Ogʻzaki xiyongyu (习用语)lar tarkibidagilar orasidagi maqom teng emas, lekin soʻz turkumlari darajasida farqlar mavjuddir. Demak, notoʻliq frazeologizmlar (准熟语) soʻzlashuv xiyongyu (习用语) turkumi emas, balki erkin soʻz birikmalari hisoblanar ekan.

B. Xiyongyu (习用语) va guanyongyu (惯用语)

Guanyongyu (惯用语) olimlar tomonidan frazeologizmga eng oxirgilaridan boʻlib kiritilgan birlik sanaladi. Garchi ularning tarixi uzun sanalsa-da, Jou Jian “guanyongyu (惯用语)” atamasi hozirgi kungacha nimani bildiradi, degan savolga aniq javob topib boʻlmaydi deydi. Li Yamey oʻz dissertatsiyasida guanyongyu (惯用语)lar xitoy tilining muhim ajralmas boʻlaklaridan biridir. Ular xitoyliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot tarzi, fikrlashi, jamiyatga boʻlgan munosabati, madaniy anaʼnalarini yorqin aks ettiradi. Ularni besh ming yillik shonli tarixga ega xitoy ijtimoiy madaniyatida bitib qoldirilgan xalq tafakkurining bebaho xazinasi, deb atash mumkin. Bundan tashqari, Guanyongyu (惯用语)lar koʻproq ogʻzaki nutqqa xos boʻlib, oddiy xalq tushunchalarini oʻziga singdira olgan va uzoq ajdodlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi va mentaliteti haqida yorqin tasavvur uygʻotishga qodir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, aytish mumkinki, guanyongyu (惯用语)lar oddiy mehnatkash xalq tafakkuri, bilimi va aql-zakovatining javohiridir.

“Tilshunoslikdagi ot soʻz turkumi”da guanyongyu (惯用语)ga quyidagicha taʼrif berilgan. Ogʻzaki nutqdagi qisqa, qoliplashgan va toʻliq maʼnoli birlik guanyongyu (惯用语) deyiladi. Guanyongyu (惯用语)lar asosan uch iyeroglifdan iborat boʻladi. Tarkibidagi iyerogliflar feʼl toʻldiruvchi shaklida tuzilgan. Maʼno uning tarkibiy qismlari maʼnolarining oddiy yigʻindisi emas, balki metafora va boshqa vositalar orqali shakllangan ritorik maʼno sanaladi. Taʼrifan kelib chiqib, guanyongyu (惯用语)larning qurilmasi va maʼnosi aniq ekanligini bildik. Ana endi, quyida guanyongyu (惯用语) va xiyongyu (习用语)lar oʻrtasidagi asosiy uchta jihatni koʻrib chiqamiz.

Avvalambor, guanyongyu (惯用语)larning yuzaki va koʻchma ikki maʼnosi mavjuddir. Misol uchun,吃独食 «yolgʻiz ovqat yemoq; oʻzi foyda olmoq; faqat men foyda olay deydigan; yolgʻiz yutib olmoq; yolgʻiz ega boʻlmoq; oʻzigina bahramand boʻlmoq; qizgʻanchiq; foydani yolgʻiz oʻzi egallab oladigan», 笑面虎 «tirjayib turgan yoʻlbars; ikkiyuzlamachi odam; kulib turib jonini oladigan zaharli odam», “穿小鞋” «adabini bermoq; zarba bermoq». Guanyongyu (惯用语)lar iyerogliflar maʼnosidan foydalanmasa-da, lekin ular mavjud boʻlib turaveradi. Koʻpgina xiyongyu (习用语)larda esa ikki maʼno mavjud boʻlmaydi. Misol uchun, 赔不是«kechirim soʻramoq; uzr soʻramoq», 爱面子«tortinmoq; tortinchoqlik qilmoq; tortinchoq; nomusli; yuz-xotira qilmoq; obroʻsini saqlamoq». Turli kontekstlarda bir nechta pragmatik maʼnolar mavjud boʻlsa ham, gorizental munosabatlar taʼkidlab keladi. 不好意思 tilda uch xil maʼnoni, iltifot, uyatchanlik, hijolatchilik kabi uch maʼnoni anglatib keladi.

Ikkinchidan, guanyongyu (惯用语)larning yuzaki va ko'chma semantikasi metafora vositalari orqali vertikal bog'lanadi. Li Xinjian ta'kidlaganidek, guanyongyular semantikasi ikki darajaga ega: biri to'g'ridan - to'g'ri semantika, ikkinchisi esa ko'chma metaforik kengaytirilgan ma'no hisoblanadi (Li Xinjian, 2002, p.55). 打预防针«ukol qilmoq; oldini olmoq» guanyongyu (惯用语)si ogohlantirishni, tarbiyani, omadsiz ishning oldini olishni bildiradi. 一锅粥 «bir qozon bo'tqa; bo'tqadek bo'lmoq; aralash-quralash bo'lib ketmoq» esa tartibsiz holatlarni bildiradi. Xiyongyu (习用语)larning ko'p ma'nolari orasida murakkab so'zlarning qo'shilish holatini uchratishimiz ham mumkin. Masalan, 没关系 «munosabati yo'q; hech qisi yo'q», 凭什么 «nimaga asoslanib», 什么东西«bunisi nimasi; nima degan gap bo'ldi».

Uchinchidan, guanyongyu (惯用语)larning ichki qismi grammatik jihatdan tahlil qilingan va semantikasi mantiqiydir. Bu uning yuzaki semantikasi uchun asos bo'lib, u ishlatilmaslik holati ham mavjud. Lekin ko'pgina xiyongyu (习用语)larda grammatik jihatdan tahlil qilinmagan, semantikasi mantiqsiz bo'ladi. Jumladan, 真有自己的 «qoyil; zo'r; barakalla», 让我好找 «juda ham ovora qilding» larni misol qilish mumkin.

3. Xiyongyu (习用语)larni aniqlash prinsiplari.

Xiyongyular (习用语)ni aniqlash uchun, “Zamonaviy xitoy tili lug'ati. 7-qism”, “Og'zaki xiyongyu (习用语)larning funksional lug'ati”, “Zamonaviy xitoy tilidagi sakkiz yuz so'z”, “Xitoy og'zaki nutqidagi ibolar tushunchasi”, “Xitoy og'zaki nutq lug'ati”, “Xitoy tili xiguanyongyu (习惯用语)lar darsligi”, “Xitoy og'zaki nutqdagi 365 xiguanyongyu (习惯用语)”, “HSK og'zaki xiguanyongyu (习惯用语)lar” matriallarini yig'ib, xiyongyular (习用语)ni aniqlashga harakat qilamiz.

A. Iyerogliflari har xil, ma'nosi bir xil xiyongyu (习用语)lar.

Misol uchun, 不好说bilan说不好 «balkim; bir narsa deyish qiyin», 老实说bilan 说实话 «rostini aytadigan bo'lsam», 照我说 bilan 依我说 «qarashimcha; fikrimcha». Bunday xiyongyu (习用语)larning tarkibidagi iyerogliflar joylashuvi har xil turgan bo'lishi mumkin, lekin ularning ma'nolari va ishlatilish o'rni bir xil sanaladi. Yuqoridagilarda iyerogliflar joylashuvi turgan bo'lsa, e'tiborimizni quyidagi birliklarga qaratishingizni so'raymiz. 别提了bilan甬提了«eslatmasang-chi; qo'ysang-chi», 不管怎么说 bilan甬管怎么说 «nima bo'lishidan qat'i nazar; nima bo'lgan taqdirda ham». Bu misollarda esa, xiyongyu (习用语)lar tarkibidagi iyerogliflar batamom boshqacha bo'lib, anglatgan ma'nosi hamda ishlatilish o'rni bir xil bo'ladi.

B. Birlashib kelgandagina ma'no beruvchi xiyongyu (习用语)lar.

Ushbu holatda leksikalar alohida ma'noni anglatib, birlashgan holatda faol ma'noni anglatadi. Misol uchun 哪里«qayerda» so'zini olsak, u lug'atlarda maxsus so'roq olmoshi

sifatida keladi. Bundan tashqari u ikkilanganda esa, 哪里哪里 «qo'ysangiz-chi; oshirib yubordingiz» ko'rinishida esa u qarshi tomonning maqtoviga odob bilan javob berishni bildiradi. Bu yerda ikkilanish holati orqali xiyongyu (习用语) yasalayotganini ko'ramiz. 变着法儿 «maqsadiga yetmoq» birikmasiga qarasak, lug'atlarda 变法儿 ko'rinishida keladi. Lekin iborada esa harakatning davomiyligini ko'rsatuvchi 着, o'z ma'nosida esa, xiyongyu yasashga xizmat qilmoqda. 还可以 «chakki emas», 还不错 «yomon emas» larga qaraydigan bo'lsak, 还yana, 可以mumkin, 不错 esa yomon emas ma'nolarini beradi. Lekin birlashganda ma'no o'zgarish holatiga duch kelamiz.

“Og'zaki xiyongyu (习用语)lar funksional lug'atida” juda ham ko'p “Fe'+ 不/得+ natija to'liqlovchisi/了(liao)” holatida kelgan birikmalarga ko'zimiz tushadi. Misol uchun, 坐不住 «o'tira olmaslik», 看不惯 «o'rgana olmaslik», 靠不住 «suyana olmaslik», 管不着 «boshqara olmaslik», 顾不上 «band; bo'shay olmaslik» va hokazolar. Bu qurilma orqali komponentlar bir ma'noga birlashadi va “faol ma'noni” keltirib chiqaradi. Shu orqali xiyongyu (习用语)lar hosil bo'ladi. Bunday holatlarda fe'lning ham, natija to'liqlovchisining asl ma'nosi yo'qolib ketish holatini ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, 管不着 birikmasi salohiyatsiz, qobiliyatsiz ekanligini anglatadi. 气不过 birikmasi esa adolat yo'qligini, nohaqlikka uchraganligini bildiradi. Bunday misollarni og'zaki nutqda talaygina topsa bo'ladi.

D. Ham to'g'ridan - to'g'ri, ham ko'chma ma'noga ega bo'lsa xiyongyu (习用语) bo'lmaydi

Yuqorida biz guanyongyu (惯用语)larning ikki xil ma'no borligini keltirib o'tdik. Agar iyeroglifning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi yo'qolgan bo'lsa, ko'chma ma'nosi bo'lmasa ular guanyongyu (惯用语) hisoblanmaydi. Biz ularni istisno tarzda xiyongyu (习用语)lar tarkibiga olamiz. Misol uchun, 穿一条裤子 (to'g'ridan to'g'ri ma'nosi: bir shimni kiymoq; ko'chma ma'no: o'ta yaqinlik, yaqin munosabat) 不冷不热 (to'g'ridan -to'g'ri ma'nosi: sovuq ham, issiq ham emas; ko'chma ma'nosi: biror odamga munosabatning iliq ekanligini bildiradi). Bu birikmalarda iyerogliflar o'z ma'nosini yo'qotmoqda, faqatgina ikkinchi ma'noni ishlatamiz. Bundan tashqari, 吃独食 birikmasini oladigan bo'lsak, undan ikki ma'no, ya'ni to'g'ridan - to'g'ri ma'nosi va ko'chma ma'no mavjud bo'lganligi uchun uni biz guanyongyu (惯用语)lar tarkibiga kiritamiz.

XULOSA

Demak, xitoy tilidagi xiyongyu (习用语)lar nutqdagi eng asosiy, tugal ega bo'lgan birliklar sanaladi. Xiyongyu (习用语)larning umumiy ma'nosi tarkibidagi har bir iyeroglif, birikmaning ma'nosi qo'shilishi orqali emas, balki biror-bir holatni qiyoslab keluvchi stilistik ma'no hisoblanadi. Xiyongyu (习用语)larning og'zaki rang-barangligi jozibador bo'lib, nutqda foydalanish esa kengligi bilan ajralib turadi. 不管三七二十一 «nima bo'lishi bilan ishi

bo'lmaslik; nima bo'lsa bo'lsin; qanday bo'lishidan qat'i nazar; bog'ini so'ramay uzumini yemoq», 包在我身上bo'ynimga olaman; mas'ulman; mening zimmamda», 杀鸡给猴看 «tovuqni o'ldirib, maymunni qo'rqitmoq; bir odamni jazolab, mingga ibrat qilib ko'rsatmoq; po'pisa qilmoq; haybatini ko'rsatmoq». Hozirgi kunda odamlar ko'p ishlatadigan xiyongyu (习用语)lar suyu (俗语), liyu (俚语)larni o'z ichiga oladi. Xiyongyu (习用语)larning birinchi xususiyati shuki, ularning ma'nosi dolzarbligidir. Ikkinchi xususiyati esa, bu – an'anaviy bo'lib, ko'pchilik tomonidan tushuna olishlik hisoblanadi.

Xiyongyu (习用语)lar haqida so'z yuritib, u mustaqil birikma va frazeologizm o'rtasidagi leksik birlik bo'lib, frazeologizm tarkibida emas. Frezeologizm tarkibidagi birliklar o'ziga xos bo'lgan aniq bir ko'rinishga, shaklga ega. Jumladan, chengyu (成语) to'rtta iyeroglifdan (画蛇添足 «qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq»), guanyongyu (惯用语) uchta iyeroglifdan (吃后悔 «pushaymon bo'lmoq; tilini tishlamoq») tashkil topadi. Xiehoyu (歇后语)larda topishmoq ko'rinishida keladi (五百钱分两下«besh yuzni ikkiga bo'lamiz–axmoq odam»). Xiyongyu (习用语)larda esa bundan aniq bir iyeroglifdan tashkil topadigan holatlarni ko'rmaymiz. Ular nisbatan erkin hisoblanadi.

Guanyongyu (惯用语)lar yuqorida sanalganidek, uchta iyeroglifdan tashkil topishidan tashqari, unda ikki ma'noni ko'ramiz. Ya'ni, uning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi va ko'chma ma'nosi (打电话«telefon qilmoq; orqadan yetkazib qo'ymoq»). Xiyongyu (习用语)larda esa ma'no bitta bo'ladi. Uning to'g'ridan - to'g'ri ma'nosini deyarli ishlatmaymiz (大手大脚 «ko'p xarajat qiluvchi»)

Xiyongyu (习用语)lar tarkibida garchi turli xil iyerogliflar kelsa, bir xil ma'noni bildirib kelishi mumkin. Bundan tashqari, uning tarkibidagi iyerogliflarning har biri o'z ma'nosiga ega, lekin ular birlashib kelgan holatdagina umumiy ma'noni bildirib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yang, Venpei.(2010). *A comparative study of modern Chinese and English slang*. Beijing: Science Press.
2. Chen, Haiyang. (1991). 陈海洋. *Dictionary of Chinese Linguistics*. Nanchang. Jiangxi Education Press.
3. Chang, Yuzhong. (1991). *Functional Dictionary of Spoken Idioms*. Beijing: Beijing Language Institute Press.
4. Lu, Xuxiang. (1999). *800 Words of Modern Chinese (Updated Edition)*. Beijing: Commercial Press.
5. Wang, Rongpei. Li, Dong. (1983). *Practical English Vocabulary*. Shenyang: Liaoning People's Publishing Press.
6. Wang, Dechun. Yang, Suying. Huang, Yueyuan. (2003). *Chinese and English Proverbs and Culture*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.
7. Zhang, Weiyu. (2010). 张维友. *A comparative study of English and Chinese vocabulary*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press.

8. Cui Xiliang. (2005). *Chinese Idioms and the Chinese Humanistic World*. Beijing: Beijing Language and Culture University Press.
9. Dong, Xiufang. (2002). *Lexicalization: the derivation and development of Chinese disyllabic words*. Chengdu: Sichuan Ethnic Publishing Press.
10. Chang, Yuzhong. (1989). A brief analysis of spoken idioms. *Language teaching and research*, (2), 150-160. (in Chinese)
11. Zhou, Zumo. (1985). Vocabulary and lexicology. *Chinese language learning*, (9), 83-85. (in Chinese)
12. Xu, Changyi. (2016). Construction of grammar syllabus for teaching spoken Chinese as a foreign language. *Language teaching and research*, (4), 1-10. (in Chinese)
13. Shao, Jingming. (1994). The crystallization of research on spoken language and pragmatics-Comments on "Functional Dictionary of Spoken Idioms". *World Chinese Teaching*, (2), 71-73. (in Chinese)
14. Zhang, Fengge. (2005). Two issues in the study of spoken idioms. *Language and text applications*, (2), 49-55. (in Chinese)
15. Tang, Jiyuan. (2001). A brief discussion on the semantic features and differences between English idioms and free phrases. *Journal of Shanghai Normal University (Social Science Edition)*, (4), 120-124. (in Chinese)
16. Zhou, Jian. (2018). The right track and important tasks of research on Chinese idioms. *Journal of Chinese Studies*, (1), 12-19.
17. Li, Xingjian. (2002). Research and Normative Issues of Idioms. *Language and text applications*, (1), 55-60. (in Chinese)
18. Li Yamei. Xitoy tilidagi ierarxik munosabatni ifodalovchi frazeologizmlar (leksik-semantik, struktur va funksional –stilistik tahlili) filol.fan. nomzodi ... diss. – Toshkent, 2011. 168 b.
19. Sun, Liping. Fang, Qingming. (2011). A comprehensive review of research on the types and functions of Chinese discourse markers. *Mandarin study*, (6), 76-84. (in Chinese)
20. Wang, Shaojun. (2018). Research on the nature, categories, characteristics and related issues of Chinese idiom constructions. *Mandarin study*, (2), 33-43. (in Chinese)
21. Shen, Jiakuan. (2006). Conceptual integration and emerging meaning-Summary of the report at Fudan University's "Wangdao Forum". *Rhetoric study*, (5), 1-4. (in Chinese)
22. Akimov Tair. Xitoy tilidagi somatik frazeologizmlar: shakllanishi va semantikasi. Toshkent: "Bookmany print", 2022. 182 b
23. 特朗博, 史蒂文森. 牛津英语大词典 (简编本) [K].
上海: 上海外语教育出版社, 2004: 1312.;
24. 托马斯·希尔·朗, 余建中. 朗文英汉双解英语成语辞典[K].
上海: 上海科学技术出版社, 1995: 1
25. Nunberg, G., I. A. Sag & T. Wasow. Idioms[J]. *Language*, 1994, (70) : 161-186.